

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

Ali Hamroyev hayoti va ijodi

Sultonov Dostonbek

O'zDSMI FMF

“Dramatik teatr rejissorligi” 4-bosqich

talabasi

sultonovdoston07@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Taniqli rejissyor va ssenarist Alii Hamroyev hayoti suratga olgan filmlari, yutuqlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Hamza, „Yor-Yor“, Ergash Hamroyev, Kinematografiya, „Dilorom“, „Laylak keldi, yoz bo‘ldi“, „Qizil qum“, Gerasimov, „Felix“.

Ali Ergashevich Hamroyev (1937-yil, 19-may, Toshkent) — taniqli o‘zbek rejissori, ssenariychisi va aktyori. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi (1969). Hamza nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti laureati (1971). Hamroyev 1960- va 1970-yillarda olgan filmlari bilan SSRIda shuhrat qozongan. Ali Hamroyev shu kungacha 30 dan oshiq hujjatli film va 20 dan oshiq badiiy film yaratgan. Hamroyevning eng mashhur filmlari „Yor-Yor“ (1964), „Soqchi“ (1972) va „Vuodillik kelin“ (1984) filmlaridir. Hamroyevning „Bo Ba Bu“ (1998) filmi ko‘plab Yevropa mamlakatlarida namotish qilingan. 2010-yil Hamroyev o‘zining yangi filmida Jack Nicholson Amir Temur rolini o‘ynashga rozi bo‘lganini e‘lon qildi. Ali Hamroyev 1937-yil 19-mayda Toshkenda tug‘ilgan. Otasi Ergash Hamroyev. Ali Hamroyev Moskvadagi Gerasimov nomli Kinematografiya Institutida (VGIK) tahsil olgan. VGIKni 1961-yil tugatgan. Hamroyev 1961-yildan „O‘zbekfilm“da rejissor bo‘lib ishlay boshlagan. „Bolalar haqida kichik hikoyalar“ uning birinchi filmi. Ali Hamroyev „Yor-yor“, birinchi o‘zbek film-operasi „Dilorom“, „Laylak keldi, yoz bo‘ldi“, „Qizil qum“, „Favqulodda komissar“, „Shijoat“, „Yettinchi o‘q“, „Muxlis“, „Inson qushlar ortidan boradi“ (Dehli festivalida „Eng yaxshi rejissura uchun“ sovrinini olgan, 1977), „Mevazorlik ayol“ kabi filmlari bilan tanilgan. Shuningdek, „Salom, Bahor!“, „Turkiston“, „O‘zbekiston“, „Toshkent jasorati“ va boshqa hujjatli filmlarga ham rejissorlik qilgan.

Ali Hamroyev O‘zbek kinosi haqida ko‘plab fikrar bildiradi. „So‘nggi yillarda o‘zbek kinematografiyasi murakkab davrni boshdan kechirmoqda, Avlodlar o‘zgarmoqda, o‘z ishining ustalari, durdona filmlar yaratgan ustoz san‘atkorlar oramizda yo‘q. Tabiiyki, ularning o‘rnini yangi mutaxassislar, yangi shaxslar to‘ldirmoqda. Yangi avlod vakillari professional mahoratini namoyish etishga urinmoqda. Biroq ularning ayrimlarigina Osiyo, Afrika, Amerika, Avstraliya yoki Yevropada yashaydigan turli millat, turli e‘tiqod, turli dunyoqarashga ega insonlar birday qiziqish bilan tomosha qiladigan filmlar yaratishga erishmoqda. Barmoq bilan sanarli kinorejissyorlar ana shunday umrboqiy kinoasarlarni suratga olayapti xolos. Ammo bu ham tabiiy holat. Hozir dunyoda «yuqori sifatli kino uchun kuchlarni to‘plash jarayoni» bormoqda, menimcha. Afsuski, so‘nggi yillarda o‘zbek kinosi dunyo haqiqatlaridan ajralib qoldi. Qog‘ozda hamma narsa yaxshidek tuyuladi, biroq mamlakatimizda yillar davomida deyarli biron marta yirik xalqaro kinoforum o‘tkazilmadi. Bunday anjumanlar o‘tkazilganda, odatda, dunyoning turli hududlaridan kinochilar, kino ixlosmandlari kelgan bo‘lar edi. Yevropa, Osiyo qit‘alari rejissyorlari, tanqidchilari ishtirokidagi kinofestivallarda o‘zbekistonlik tomoshabin uchun yangi filmlar namoyishi o‘tkazilishi, keyin esa samimiy davrada o‘z taassurotlari bilan bo‘lishish mumkin edi-ku. Afsuski, bunday bo‘lmadi. Biz o‘z qobig‘imizga o‘ralashib yuraverdik. Agar kino sanoatida kinematograflar faqat tor doirada bir-biri bilan muloqot qilsa, bir-birini maqtash bilan

ovora bo'lsa dunyodagi jarayonlardan chetda qolib ketadi. Ma'lumki, agar iqtisodiyot rivojlanmasa va bir joyda deysinib qolsa, jamiyatda kambag'allar soni ortadi. Natijada hayot qiyinlashadi. Kino san'atida ham xuddi shunday. Kino sanoati rivojlanmas ekan, odamlar ma'naviy jihatdan qashshoqlashadi.

Bugungi kunda ko'plab yoshlar xorijiy seriallarni tomosha qilmoqda. Aksariyat rejissyorlarimiz ham mazmun va mohiyat jihatdan ushbu seriallarga o'xshash o'zbek filmlarini suratga olmoqda. Men ularga boshqa chet eldagilarga o'xshamaydigan, o'zbek qadriyatlari va madaniyatiga asoslangan ijodiy loyihalar yaratishni maslahat bergan bo'lardim. Hozir o'zbek kinematografiyasi o'zgarishlar jarayonida bo'lib turibdi. Bu bosqichdan ham o'tib olish kerak. Mamlakatimizda samarali faoliyat yuritayotgan katta avlod vakillari va iqtidorli yoshlar ham bor. O'zbekiston rahbariyati o'zbek kinematografiyasini modernizatsiyalash bo'yicha oqilona vazifa qo'ydi, deb hisoblayman. Davlat rahbari muntazam tarzda bunga chaqirmoqda va mazkur sa'y-harakatlar kinematografiya taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli sohada yaqin bir necha yil davomida ijodiy o'sish kuzatilishiga ishonaman.

Hozirgi kunda chet elda yashayotgan rejissyor oz filmlari ortidan ko'plab sovrinlar qabul qilib olmoqda. Misol tariqasida 2022-yilning 12-17-noyabrdagi Italiyada bolib otgan festivalda ishtirok etdi. O'zbekiston elchixonasi ma'lumotiga ko'ra, kinofestivalning so'nggi kunida g'oliblar e'lon qilindi. Unga ko'ra, taniqli o'zbek kinorejissyori Ali Hamroyev «Samarqandda qovun tarovati» badiiy filmi uchun «Felix» bosh mukofotiga sazovor bo'ldi. Ushbu kinofestivalning maqsadi kino, dizayn va madaniyat orqali insonparvarlik g'oyalarini targ'ib qilishdan iborat. Festivalda qatnashayotgan filmlar namoyishi Milandagi mashhur kinoteatridan biri - «Anteo» kino saroyida bo'lib o'tadi. Joriy yilda o'tkazilgan «Premio Felix» xalqaro kinoanjumaniga taqdim etilgan kinolar prodyusser Roberto Bessi, Italiyaning «24 Ore News» axborot agentligi bosh muharriri Alessandro Trani, san'atshunos Vlada Novikova, rejissyor Luchano Boskettidan iborat hamkamlar hay'ati tomonidan baholandi. Festivalning yopilish marosimini italiyalik aktrisa Mikela Di Martino hamda aktyor va qo'shiqchi Georgiy Chkareuli olib bordi «Samarqandda qovun tarovati» badiiy filmi oddiy Samarqand mahallalaridan birida yashayotgan odamlarning hayoti haqida hikoya qiladi.

Ali Hamroyev bu yil 85 yoshga to'ldi. Uning filmlari o'zbek va xorijiy kino ixlosmandlari o'rtasida juda mashhur. Ali Hamroyev so'nggi yillarda Italiyada yashab kelmoqda. Taniqli kinorejissyor 1976 yilda O'zbekistonga safar qilgan mashhur italyan kinorejissyori Mikelanjelo Antonioniga hamrohlik qilgan va u bilan uzoq yillar do'st tutingan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. TeshabayevDj., O'zbekskoyekino: traditsii, novatorstvo, T., 1979;
2. Hasanov B., O'zbek hujjatli kinosi, T., 1972;
3. Abul-KasimovaX..TeshabayevDj., Mirzamuhammedova M., Kino O'zbekistona, T., 1985.
4. Abul- Kasimova X., Rojdeniyeo'zbekskogokino, T., 1965;
5. TeshabayevDj., Putiipoiski, T., 1972;